Ushbu hikoya hayotiy voqeaga asoslangan. Iltimos foydalanmoqchi bo’lsangiz, kanalning nomini ko’rsating, sizga omonat. Chunki bu o’z mehnatim.
t/me.iffatliqalb, @snergis

Instagram asiriga aylangan Ummu Gulsumning ibratli hikoyasi

40 yoshlardagi nur yuzli ayol, qo’lida tasbehi bilan xonaning pardalarini ochdi:
“Ummu Gulsum uyg‘on qizim, quyosh allaqachon chiqdi, yaqinda peshin bo’ladi. Uyg‘onmaydiya. Yana yarim kechagacha telefon o‘ynadingmi?!”
“Oyijon iltimos yana ozgina uxlay”
“5 daqiqada nonushtaga tush” deya onasi xonasidan chiqib ketdi.
Ummu Gulsum “uff” deya yostig‘ini tagidan telefonini chiqardi. Instagramdan bir talay xabarlar kelgandi. Hayajon ichida kulimsiradi.
8 soat ichida 52 ta obunachi unga qo’shilgan edi. Darhol rasmlari tagiga yozilgan izohlarga javob bera boshladi. Bu orada onasi “Ummu Gulsum” deb chaqirdi. Qo’lidagi telefonini xonasida qoldirib pastga nonushtaga tushdi.
“Buving olib kelgan ko’ylak bilan ro’molni ilib qo’ydingmi? Juda yarashdi a senga. Biron bayramlarda kiyarsan”
“Yo’q oyijon ilmadim. Bekorga joy olmasin, shundoq ham shkafim to’la, ham u ko’ylak menga bo’lmaydi, juda keng, ichida yo’qolib qoldim”
“Ko’ylakka nima qilibdi, chiroyliku, biron maxsus kunlarda kiyasan”
“Uff oyi siz bilan talashamanmi endi. Dugonalarim bilan uchrashishim kerak” deya xonasiga chiqib darhol kiyina boshladi. Tor jinsi shim, ustiga esa kaltaroq kofta kiydi. Oynani oldiga borib sochlarini tuyani o‘rkachidek qilib yig’di va ro‘molini o‘radi. Ko‘ziga qalam, biroz tush surdi. Labiga esa bilinar bilinmas qilib pomada surganidan keyin, telefonini olib rasmga tushdi va shu zahoti instagram profiliga joyladi. Joylashi bilan turli xil chiroyli so‘zlar kela boshladi. Kulib qo’ydi va atirini sepib uydan chiqdi. Yarim soatdan keyin dugonalari bilan uchrashib bir kafega kirishdi. Suhbatlari juda qiziqarli va kulgularga to‘la o‘tayotgan edi. Kafedagi hamma ularga qaradi, qizlar esa bu holatga yanada batarroq kular edilar. Ummu

Gulsum yana telefonini chiqardi, kelgan xabarlarni oʻqib kulib qoʻyar edi. Yon stolda oʻtirgan yigitlar esa unga bir-bir qarab qoʻyib, oʻz oralarida pichirlashishar edi. Koʻp oʻtmay yigitlarning ichidan eng kelishgani Ummu Gulsum oʻtirgan stolning yoniga kelib:
“Salom” dedi.
“Salom”
“Sen instagramdagi Ummu Gulsum emasmisan?”
“Ha, menman” deb javob berdi qiz.
“Bilgan edim. Doʻstlarim esa ishonishmadi. Haqiqatda goʻzal ekansan”
“Balki... rahmat” dedi Ummu Gulsum qo’pol ohangda.
“Yoshing nechchida”
“18 da. Bo’ldimi?!”
“Meniki 26 da. Yoshlarimiz ham juda mos ekan. Kechroq yozaman senga”
Ummu Gulsumning dugonalari qahqaha otib kulishdi. Ularga Ummu Gulsum ham qoʻshilib kula boshladi.

Kech kirgan edi. Dugonalar birgalikda uyga qaytayotgan edilar. Qorong’idan ko’chada deyarli hech narsa ko’rinmas edi. Ummu Gulsum qoʻlida telefon bilan barchadan oldinda ketayotgan edi. Ko’cha tomonga burilmoqchi boʻlganida birdan bir narsaga urilib ketti. Ovozi boricha baqirib yubordi. Unga qoʻshilib dugonalari ham baqirib yuborishdi. Uzun bo’yli, gavdali bir kishi Ummu Gulsumga g’azabli nigoh bilan qarab turardi. Ummu Gulsum esa bu odamning koʻzlariga termulib qolgan edi. Yigit boshidagi sallasini toʻgirlab, hech narsa demasdan boshqa yoʻldan keta boshladi.
“Tavba, astagʻfirullah” deya yoʻlida davom etti. Ummu Gulsum darhol uyiga bordi. Gʻazab toʻla nigohlardan qoʻrqib ketgan edi. Xonasiga kirib oʻzini krovatiga oʻtti. Telefonini olib xabarlarni oʻqiy boshladi. Haligi kafedagi bola rostan ham unga xabar yuborgan edi. Buni koʻrib joyidan sakrab turdi. “Xayrli oqshom” deb yozilgan edi. Ummu Gulsum kulimsirab u bolani bloklab qoʻydi. Birozdan soʻng boshqa profildan xabar keldi.
“Qaysarlik qilma, sen bilan tanishishni xohlayman.”
“Men esa xohlamayman” deb yana bloklab qoʻydi. Shunday qilish unga juda yoqar edi.
Kunlar shu saylda oʻtardi. Har kuni yangi rasmlar, videolar joylanar, ularning tagiga yuzlab izoh, xabarlar, iltifotlar. Kundan kunga obunachilari koʻpayardi. Qoʻli telefondan

boʻshamas. Shu sababli namozlari ham doim yo qazo boʻlar, yo eng soʻnggi daqiqalarida oʻqilar edi. Baʼzan ichi gʻash boʻlib qolganida namoz oʻqir, oʻqib boʻlgach joynamozi va tasbehini rasmga olib instagramga joylardi. Tagiga esa diniy post yozib qoʻyardi. Qolgan vaqtlarchi? Namozlar oʻqilmasdi, bu rasmlar faqatgina onlik rasmlar edi.
Haftalar oʻtti va nihoyat masjidda oʻtkaziladigan hayriya yigʻilishi kuni keldi. Ummu Gulsum erta tongdan uygʻonib chiroyli kiyimlarini kiydi.
Namozga ulgurishni xohlardi, lekin ulguradimi yoʻqmi bilmasdi. Birozdan soʻng, masjidga ayollar kirganidan keyin maʼruza boshlandi. Barcha qizlar Ummu Gulsumni “xush kelibsan” deb kutib olishdi. Hammaning eʼtibori unda edi. Masjiddagilarning yarmi imomning maʼruzani eshitar, qolgan yarmi esa kirib kelgan goʻzal qizga qarab, bir-birlari bilan suhbatlashishar edi.
“Koʻz tegmasin buncha chiroyli qiz ekan!”
“Kiyinishini qara. Manekenga oʻxshaydiya. Yoshiga mos ekan!”

Ummu Gulsum unga qaratilgan nigohlarni his qilardi. Barchani oldidan oʻtib, eng birinchi safga, dugonalarini oldiga borib oʻtirdi. Yana telefonini chiqardi. Instagramga rasm joylab qayerdaligini bildirishni xohladi. Masjidda esa imomning ovozi hattoki osmonni ham titratgudek edi:
“Qani qayerda qoldi, yosh qizlarning hayosi, odobi, ahloqi. Iffat timsoli qizlarimiz qani?!
Sahobalar soʻragan edi: “Ey Fotima, Muhammad alayhissalomning eng nozik gul gʻunchasi, ayting eng hayirli ayol kim?”
Onamiz nima deb javob bergan edilar?”
Sukunat choʻkkan edi masjidga. Imomning ovozi shu qadar baland, gʼazab toʻla ediki hatto masjid minorasidagi qushlar ham uchib ketayotgan edi.
“Begona erkaklarning hayolida boʻlmagan ayol” deb javob bergandilar onamiz.”
Maʼruza uzoq davom etar, imom hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlarning musulmon qizlarning ahloqiga taʼsirini, moʻmina qizlarning qadrini, ular qoʻl tegmagan mujavhardek ekanligini tushuntirar edi. Ammo, Ummu Gulsum bularni eshtayotganmidi? Osmonlar-u, yerlarning, qushlarning ham eshitganini, u eshitmas edi. Chunki qalbi muhrlangan edi…

Maʼruza tugachach ayol qizlar oʼzlari uchun maxsus ajratilgan

hovliga chiqtilar. Ummu Gulsum u yerda ham o’zini rasmga olib profiliga joyladi. Ayollarga ajratilgan joyga erkaklar ham kirayotganini ko’rgan bir yigit nima bo’layotganini tushunmay, borib ko‘rishga qaror qildi. Borib qarasa go’zallar go’zali bir qiz, bilagini ochib yengini shimarib olgan, ozgina ochilib turgan bo’yniga tushib turgan ro’molini tez-tez orqaga tashlab xizmat qilayotgan edi. Kimdir kelganini sezgach
“Keling, nima xizmat” deb boshini ko’tardi-yu, uzun bo’yli, gavdali, g’azab to’la nigohli yigit bilan qarshilashdi. Bu o’sha bir necha oy avval ko’chada uchratib qolgan yigit edi. Yonoqlari qizarib ketdi. Ko’zlariga tik qarab “keling marhamat, qanday yordamim kerak” dedi. Ammo, yigit Ummu Gulsumga g‘azab qilib, yonidagi ayoldan yordam istadi va chiqib ketdi. Kim edi bu? Axir yigitlar, Ummu Gulsumning ko’zlariga bir bora qarash uchun navbatda turishardi. Unga e’tibor ham bermagan bu yigit kim edi?
Shu kundan boshlab Ummu Gulsum har kuni masjidga kelib yordam beradigan bo’ldi. Eng chiroyli kiyimlarini kiyar, tabiiy ko‘rsatadigan yengil pardoz qilib kelardi. O’sha notanishni yana ko‘rish uchun.
Uni yoqtirib qolganin hech kimga aytmagan edi. Axir u Ummu Gulsum edi. U mashhur ediku. Qalbini hech kimga bermasligi kerak edi, aksincha qalblarni yondirishi kerak edi.
Hayriya kunlari tugagan edi. Endi Ummu Gulsum uni faqat uzoqdan ko‘ra olardi xolos. Hamma uni yaxshi ko‘rardi: yoshi katta buvilardan tortib yosh bolalargacha. Hamma uning yoniga kelardi.
“U ham men kabi mashhurmikan? Bo’lishi mumkin, juda kelishgan-ku.”
Instagramdan, yoki telefonga biron xabar kelsa darhol yuragi o‘ynab joyidan sakrab turib telefoniga qarardi. Ammo, u yigitdan biron xabar yo‘q edi.

Bir kun qizlar masjidda yig’ilishdi. Masjidda bir ayol biri:
“ Shu yerda bir quti bor, ichidagi kitoblar bizning ishimizga yarashi mumkin. Qarab, olib kelasizlarmi?” dedi. Ayolning gapi tugamasidan “Ha, albatta, biz borib kelamiz” dedi Ummu Gulsum va dugonasi bilan aytilgan joyga borishdi. Ichida ajoyib bir his bor edi. G‘azab to‘la ko‘zli yigitni ko‘rish umidi bor edi.
“Axir,Allohning uyiku masjid. Albatta keladi.” deb o‘ylardi.
“Qanday yordam kerak” dedi, qo‘lida kitoblar bilan kelayotgan bir yigit.

“Haligii..Biz bir quti olishimiz kerak, ichida kitoblari bor…” deb ikki qo‘lini orqasiga birlashtirdi, huddi erkatoy yosh qizchadek.

Yigit bu go‘zal qizni ko‘rib kulimsiradi. “Ha shundaymi? Quti menda hozir beraman. Mening ismim Muhammad. Sen Ummu Gulsum emasmisan? Hayriyada ham ko‘rgandim seni.”
Ummu Gulsum hattoki masjidlarda ham taniqli bo‘lganidan xursan bo‘lgan edi.
“Ha, bu menman. Qayerdan bilasan?” deb Muhammadning ko‘zlariga kulib qaradi. Egilib qutini olmoqchi bo‘lganida Muhammad
“to‘xta biroz og‘irroq, yerdan ko‘tarishga yordam beraman” deb qutini olib Ummu Gulsumning qo‘liga tutqazdi va barmoqlarini sekin-sekin Ummu Gulsumning barmoqlariga teqqizdi. Xijolat bo’lgan qiz esa qo‘lini sekin tortib oldi. Qutini olib ketayotgan ediki, yana o‘sha gavdali, baxaybat, g‘azab to‘la ko‘zli devordek yigit bilan urilib ketdi. Uning g‘azab to‘la ko‘zlari bu safar Ummu Gulsumga emas, Muhammadga qaragan edi. “Bu yerda nima bo’lyabdi” deb Muhammadga bir musht tushirdi. Qizlarga qarab “Sizlar darhol bu yerdan keting!” dedi.
“Sen qizlarga osilyabsanmi?”
“Aka, kechiring, nafsim…?”
“Sen bu yerda ishlamaysan, nega yordam beryabsan, seni deb menga gap tegadi!”
“Aka boshqa takrorlanmaydi…”
“Boshqa ko‘rmay seni!”
Ummu Gulsum yuqorida hammasini eshtib turgan edi. Qanchalik yoqib tushgan edi.
“Bilardim. Meni rashk qildi. U ham meni yoqtiradi” deb ichiga sig‘mayotgan edi.
Masjiddagi ayollardan biri:
“Tinchlikmi domla, ovozingiz hamma joyga eshitildi?” deb so‘radi.
Ummu Gulsum quloqlariga ishonmayotgan edi. Nahotki, u domla edi. Demak, imom ekanda. Shuning uchun menga qaramayotgan ekanda.
“Xavotir olmang, bir talabamni qizlarga osilganini ko‘rdim, darhol tazirini berdim. Himoya qilishim kerak axir.”
Ummu Gulsum o‘ziga sig‘may ketdi. “Kimni himoya qiladi. Menimi? Nahotki?! Meni rashk qilsa, qizg‘onsa, qanday baqirdiya haligi bolaga, yetmaganiga musht ham tushirdi.

Hammasi men tufayli…”
“Kimni himoya qilasiz” deb so‘radi masjiddagi muallima ayol.
“O‘quvchilarmni!” deb baqirdi imom ataylab. Himoya qilishim kerak oxir zamon fitnasidan, nafslarining istaklaridan. Qizlar bu yerda nima qilyabdi?! Bundan buyon erkaklar va ayollarni bir joyda bo‘lishini xohlamayman. Qizlar kelib mening o‘quvchilarim bilan bemalol gaplashishi mumkin emas!!!”
“O‘zingni bos, imom o‘g‘lim, jaxling chiqmasin, men o‘zim qarayman ularga. “
“Darhol buni hal qiling. Hayriya ishlariga yordamga kimlarni olganingizga qarang. Qizlardan biri ijtimoiy tarmoqlarda mashhur ekan. Qarang, mening talabam ham tanir ekan hattoki. Qancha ma’ruzalar qilaman bu haqida, masjidni, meni imomlik hurmatimni qo‘ying, dinimizni qanday qilib bunchalik qadrsizlantiradi!?”
Ummu Gulsum bu so‘zlarni eshtib tamom bo‘lgan edi. Rashk qilib meni himoya qildi deb o‘ylagan odami, u haqida qancha gaplar gapirgan edi. Ummu Gulsum bunday haqoratlarga o‘rganmagan edi. Hamma uni yoqtirardi axir. Darhol uyiga keldi. Oyog‘ida mador yo‘q edi. “Men haqimda nimalar dedi haddini bilmaydigan imom” deb jaxli chiqardi.
Endi Ummu Gulsumning instagram sahifasi yanada aktiv holatga kelgandi. Rasmlar, videolar ko‘paygandi.
“Musulmon qizlariga qo‘yilgan har xil qonunlar, ta’qiqlarga qarshiman!
Nima endi bir qiz hijob o‘ragan bo‘lsa erkaklar bilan hecham gaplashmasligi kerakmi?
Rasmga tusholmaydimi?
Dugonalari bilan bemalol chegaradan chiqmagan holda kechgacha aylanolmaydimi?
Moda qarab chiroyli kiyinolmaydimi? Yoshi katta ayollardek kiyinishi kerakmi?
Qanday be’mani va johilona tushuncha bu!” kabi nafrat to‘la so‘zlar yozib qoldirardi. Profilidagi erkak kuzatuvchilari uni yanayam ko‘proq rasm qo‘yishi uchun fikrlarini qo‘llab quvvatlashardi. “To‘g‘ri aytasan, albatta sen haqlisan. Qani olg’a Ummu Gulsum ko‘rsatib qo‘y hammaga” deb qizning nafsiga yoqadigan gaplar yozishardi.
“Alloh go‘zal qilib yaratibdi uni nega yashirasan, ko‘rsataversangchi hammaga ham berilmagan axir. Sen maydonga chiq, olam maniken, model qanday bôladi bir ko’rsin. Islomga havas qilishsin…” va h.k.so‘zlar. Afsuski, bu

oxir zamondagi xolat shunday edi.

Yana bir kun Ummu Gulsum bir talay rasmlar joyladi. Ortidan esa niqob taqib, faqatgina surma surilgan koʻzlari koʻrinib turadigan rasmini joylab, pastiga Hazrati Fotima roziyallohu anhuning iffati haqidagi post yozib qoldirdi. Kuzatuvchi yigitlar eng chiroyli koment qoldirish boʻyicha goʻyo musobaqalashayotgan edilar. Ummu Gulsum erkalanib uyqisi kelayotganini aytib instagramdan chiqdi. Yuziga maska surib uyquga ketdi...

Ummu Gulsum uxlayotgan edi. Tahajjud vaqti...Peshonasi terga botgan. Yerda sudralayotgan edi. Nega turolmayabdi oʻrnidan? Ogʼriqlarchi? Yuzi, oyoq-qoʻllari ogʻriyotgan edi. Sochlari yonib ketgan edi. Juda xunuklashib ketgan edi. Goʻzalligidan asar ham qolmagan edi. Atrof toʻla odam hamma unga qarardi. Ustida kalta bir koʻylak bor edi. U ham yirtiq yamoq edi. Hamma unga irganib qarar, qoʻli bilan koʻrsatardi. Ayniqsa, yigitlar. Qochadigan joy qidirardi Ummu Gulsum. Uzoqda bir qoyaga koʻzi tushdi. Qoyadan nur taralardi. Ustida bir yozuv, uzun keng koʻylak va roʻmol bor edi. Bu oʻsha buvisi unga olib bergan keng koʻylak edi. Uning ustida esa Qurʼoni Karim bor edi. Yugurib borib oʻsha koʻylakni olib kiyib olmoqchi boʻldi Ummu Gulsum. Ammo, qaniydi borolsa, qaniydi qoʻllari yetsa...Yonginasida turganiga qaramasdan yetib borolmasdi. Allohning oyatiga, oʻsha roʻmolga qoʻlini uzatsa ogʻriqlardan ingrar edi. Huddi bir toʻsiq bordek edi. Yon tarafida esa oʻzining kiyimlari: tor shimlar, kalta koʻylaklar. Hech qanaqasiga avratini yopa olmayotgan edi. Yigʼlashni boshladi. Birozdan soʻng boshqa yigʻi ovozi eshtildi. Uzoqlarga qaradi. Nur ustida nur. “Kim bor? Kimdir menga yordam bersin!” deb baqirdi.
Oppoq koʻylakda, oppoq roʻmolda, nur yuzli goʻzal ayol keldi yoniga. Koʻzlaridagi yosh yuzidan oqib, turoqqa tushar, tushgan joydan esa gullar oʻsib chiqardi. Yaqinroq keldi Ummu Gulsumning yoniga. Koʻz yoshlari Ummu Gulsumning ustiga tomar, tomgan joyidagi yaralar va ogʻriqlar tuzalardi.
“Sen kimsan? Sen menga yordam berolasan. Qara yaralarim yaxshi boʻlyabdi. Iltimos yordam ber menga”
Nur yuzli ayol boshini egdi, yordam berolmasligini aytib orqasiga oʻgirilib keta boshladi. Ummu Gulsum ortidan baqirdi: “Toʻxta, qayerga ketyabsan? Nimaga yigʻlayabsan. Men

tufaylimi?”
Shu payt birdan Qur’ondan bir oyat eshtila boshladi. Qur’ondan oyat o‘qiyotgan inson, bunchalar ham chiroyli qiroat qilmasa. Ovoz ham tanish tuyulardi. Nur yuzli ayol Ummu Gulsumga qayrilib qaradi va dedi:
“Faqat men emas ko‘z yosh to‘kayotgan. Otam Muhammad salollohu alayhi vasallam ham yig’lamoqda. Men, Abdulloh o‘g‘li Muhammad Mustafo salollohu alayhi vasallamning qizi, Abu Tolibning o‘g‘li Alining jufti Fotimaman…
Hayrat to‘la nigohlar bilan qarab turardi Ummu Gulsum.
“Kaftingni och”
Ummu Gulsum Kaftlarini ochdi. Kaftiga bir tomchi yosh tushdi. Tushishi bilan hamma joy nurlarga to‘lib ketdi. “Yo Robbim, bu nima?”
“Bu otamning ko‘zlaridan soqollariga, gul iforli soqolidan kaftlariga tushgan bir tomchi yosh” deb javob berdi Hazrati Fotima.
“Allohu Akbar” deya uyg‘onib ketdi Ummu Gulsum. Titrayotgan edi. Huddi kuygan joylari hali ham bordek. O‘ziga bir qaradi. Hamma joyi sog‘ edi. O‘ng qo‘liga qarasa tomchi ko‘z yosh hali ham bor. Hidladi, qo‘lidan gullarni ifori taralardi. Ummu Gulsum ovozi boricha baqirib yig’lardi. “Allohim, men bunga loyiq emasdim…shuncha gunohim bo‘la turib-a Robbim…nega men Allohim!
Otam onam sizga fido bo‘lsin gul yuzli payg‘ambarim” deya soatlarcha yig‘ladi. So‘ng bir ro‘molcha olib ko‘z yoshlarini artti va shu ro‘molchasini Qur’oni Karimning ichiga solib qo‘ydi. Nur surasining oyatlari orasida saqlardi. Darhol turib tahorat oldi, tavba qildi. O‘tirib tinmay yig‘ladi. Hayolida Fotima onamizning so‘zlari aylanardi. Eslagani sari battar yig‘lar edi. Tun bo‘yi joynamoz ustidan turmadi. Tizzalari, ko‘zlari og‘rib ketgan bo‘lsa ham turmadi o‘tiraverdi. Onasining iltimosi bilan oyoqqa turdi. Tushi haqida esa hech kimga hech narsa demadi.

Birinchi qilgan ishi telefonini olib instagramdagi rasmlarini o‘chirish bo‘ldi. Ammo, rasmlari faqat instagram sahifasida emas boshqa turli xil saytlarda ham bor edi. Ularni o‘chira olmadi. Battar yig‘lashga tushdi. Telefonini devorga otib yubordi. Oynaga qaraginda profiliga joylangan turli xil rasmlari va tushida ko‘rgan o‘zining ahvoli: kuygan yuzlar va sochlari hayoliga kelardi. Yana yig‘ladi, o‘ksib o‘ksib yig‘ladi.
“Ming la’nat bu yuzga! Agar men payg‘ambarimni ko‘ra

olmasam, bu go‘zalikkni nima keragi bor menga?!! Hammaga yoqishni, go‘zal ko‘rinishni xohlashlik orzusi… Allohim nafsimdan senga sig‘inaman menga yordam ber” deb yig‘lardi. Shkafini ochib barcha tor, kalta kiyimlarini olib otib yubordi. Hech o‘ziga yarashtirmagan, keng turadi deb kiymay olib qo‘ygan uzun ko‘ylagi keldi hayoliga. Shu ko‘ylakni kiydi. Yoshini kattaroq ko‘rsatsa ham tanasini shakli bilinmas, shahvoniy nafsni uyg‘otmas edi. Bir vaqtlar menga to‘g‘ri kelmaydi degan ko‘ylagi, endi yagona kiyimiga aylangan edi. Tinmasdan Qur’oni Karim, sahobiyya ayollarning ahloqi va iffati ta’riflangan kitoblar o‘qirdi. Hazrati Hadicha onamiz, Hazrati Oisha onamizning hayotlari bilan tanishardi. Ularning ichida ko‘proq Hazrati Fotima onamiz haqidagi kitoblarni o‘qirdi. Fotima roziyallohu anhuni juda yaxshi ko‘rar edi. O‘qir ekan baqirib baqirib yig‘lardi. Uyidan hech chiqmas edi. Masjidgaku umuman bormay qo‘ydi. Qalbini o‘g‘irlagan o‘sha yigitni ko‘rib qolishdan qo‘rqardi.
“Qanchalik rost gaplarni aytgan edi yosh imom o‘shanda… Men unga loyiqmidim? Qanday qilib u bilan birga bo‘lishni orzu qila oldim men!”

Bir kun telefon jiringladi. Ummu Gulsum ko‘rib yoqtirib qolgan bir ayol uylariga sovchi bo‘lib kelmoqchiligini aytdi.

Ummu Gulsum doim duo qilar, eng xayirlisini so‘rardi. Demak shu xayirli edi. Taklifni qabul qildi. Yigit juda kelishgan va juda dindor edi. O’zidan atiga ikki yosh katta edi. Ummu Gulsumning qalbi bu yigitga isimagan bo‘lsa ham taklifini qabul qildi. Ko‘chada bemalol yurishni, odamlarni gap so‘zlaridan qutilishni xohlardi. Bu taklif Ummu Gulsum uchun bir imkoniyat edi. Oilalar ham bir-biriga mos kelgan edi. 1 hafta o‘tib unashtirildi. Ummu Gulsumning bo‘lajak turmush o‘rtog’iga nisbatan hurmati baland edi. Uning oldida biron so‘z demasdi. Doim boshi yerda edi. Yigitni sevib qoladigan kunni kutardi. “Nikohda xayir bor, to‘ydan keyin sevib qolaman” derdi o‘ziga o‘zi. O’zini juda omadli his qilardi. Endi uni qo‘llaridan tutib hech qo‘yib yubormaydigan odam bor edi. Bir kun yigit Ummu Gulsumga bir kafega borib ovqatlanishni taklif qildi. “Uyalishingga xojat yo‘q, singlim ham keladi. Meni oldimda o‘zini erkin his qilishingni xohlayman, seni yaqinroqdan tanimoqchiman” dedi yigit. Ummu Gulsum rozi bo‘ldi. Yo‘l bo‘yi boshini ko‘tarmay jim ketdi. Bu esa turmush

oʻrtogʻi Hasanga juda yoqib tushgan edi. Bu oxir zamonda shunday iffatli qiz uning jufti boʻlish arafasida edi. Kafega borib kichik stolga oʻtirishdi. Hasan koʻzlarini Ummu Gulsumdan uzolmasdi. “Naqadar chiroyli qiz, qoʻllari bunchalar nozik boʻlmasa...”
Tezroq juftining qoʻllaridan tutgisi kelardi. Birdan Hasanning koʻzlari qarshi stoldagi yigitlarga tushdi. Huddi ular Hasanlar oʻtirgan stolga qarab bir nimalar deb pichirlashayotgandek edi. “Ular bizga qarayabdimi” deb soʻradi singlisidan. “Ular Ummu Gulsumga qarashyabdimi?”
Ummu Gulsumning ularni tanishi esa hayoliga ham kelmasdi. Juda jaxli chiqqan edi Hasanning, qizgʻonayotgan edi. Yana davom etsa oʻrnidan turib urar edi. Yigitlar yana Ummu Gulsumga qarab pichirlashishdi. Hasan ortiq chidolmadi. Joyidan uchib turdi. Ummu Gulsum Hasanning qoʻlidan ushlab “Iltimos, unday qilmang...” deb yigʻlab yubordi. Hasan darhol joyiga oʻtirdi. Ummu Gulsumning bir soʻzi uni sokinlatgan edi. Koʻzlariga qaradi. Ummu Gulsum ming pushaymonlik bilan qoʻlini darhol tortib oldi. Ichidan tavba qildi. Unga teginishni xohlamagan edi, refleks tufayli qoʻlini ushlagandi. “Kechiring, bunday qilishni xohlamagandim...”
Hasan ham gʻalati boʻlib ketti. U ham tavba qildi, hali nikoh boʻlmasidan qoʻllari bir-biriga tegishidan hayo qilgandi. Koʻzi hech qiymasdi uni.
“Ketsak yaxshi boʻladi” deb oʻrnidan turdi Hasan va kassa tomonga ketti. Singlisi esa Ummu Gulsumni tinchlantirayotgan edi. Hasan ketishi bilan qarshi stoldagi yigitlardan biri Ummu Gulsumning yoniga keldi. Hasan esa buni koʻrib orqasidan keldi.
“Vay, vay instagramning guli. Qalaysan. Yoʻqolib ketding. Juda oʻzgarib ketibsan”
Ummu Gulsumning koʻzlari yoshga toʻldi. Koshki yer yorilsayu yerning ichiga kirib ketsa.
Hasan quloqlariga ishonmayotgan edi.
“Odobli, hayoli qiz roli senga yarashibdi. Lekin bilasanmi, sen hali ham mening hayollarimga juda mossan.”
Hasan chidolmadi. Yigitni oʻziga qaratib bir musht tushirdi.
“Nima boʻlyabdi” deb yigit yerdan turdi.
“Sen meni boʻlajak ayolim bilan bunday gaplashishga nima haqqing bor?”
“Ooo... hali boʻlajak turmush oʻrtogʻing ham bormi Ummu Gulsum?! Shumi seni unashtirilganing. Yaxshi bolaga

oʻxshayabdi. Juda achindim. Qanday qilib ilintirding?”
Hasan takror yigitning yoqasiga yopishdi.
“Ummu Gulsum bu nimala deyabdi?!”
Ummu Gulsum faqat yigʻlardi. Oyoqda turishga holi yoʻq edi. Koʻzlarini yumib boshini egdi.
“Birodar sen bu qizni kimligini rostan ham bilmaysanmi? Toʻxta senga bir narsa koʻrsataman. Hasan Ummu Gulsumga qaradi. Ummu Gulsum boshini hecham koʻtarmadi. Hasanni yoʻqotishdan qoʻrqayotgan edi.
Yigit telefonini olib Ummu Gulsum degan papkaga kirdi. Hasan koʻrganiga ishonmadi. Ummu Gulsumning turli xil rasmlari, videolari bor edi. Hasan turgan joyida qotib qolgan edi.
“Ha koʻrdingmi, bu rasmlar faqat menda emas anavi yerda oʻtirgan doʻstlarimda ham bor. Mayli seni hurmating uchun oʻchirib tashlayman. Modomiki uylanmoqchi ekansan.”
Hasan gʻazab otiga minib yigitning xumoridan chiqqanicha urdi. Soʻng qoʻlidagi unashtiruv uzugini chiqarib stolning ustiga qoʻydi. Fotiha buzilgan edi.
Ummu Gulsum bir ahvolda oʻtirardi. Chidolmadi, baqirib yigʻlab yubordi.
Kaltak yegan yigit doʻstlariga kulib qarab qoʻydi va Ummu Gulsumning stoliga oʻtirdi.
“Qara, tashlab ketti seni. Nimaga kayfiyating yoʻq? Kel men bilan koʻngil xushlik qil. Seni men baxtli qilaman. Yur biron doʻkonga borib ustinga chiroyli kiyimlar olamiz. Xola boʻlib qolibsan” deb masxara qilardi yigit Ummu Gulsumni.
Ummu Gulsum bularni eshitgandan koʻra oʻlishni tanlardi. Indamadi, oʻrnidan turib yigʻlaganicha chiqib ketdi. Hattoki ovozini ham eshttirishni xohlamadi. Uyiga bordi, ammo koshki bormasa edi. Janjal u yerda ham davom etardi. Hasanning onasi telefon qilib fotiha buzilganini aytgan edi. Hasan hech narsa demasa ham singlisi bor gapni oilasiga aytib bergan edi.
“Ana ol, 24 soat telefondan boʻshamasding, mana endi nafaqat oʻzingni bizni boshimizni ham yerga egib qoʻyding, koʻchaga chiqishga yuzimiz qolmadi” deya onasi ham undan xafa boʻlgan edi.
Faqatgina buvisi tushunardi uni. Boshini tizzasiga qoʻyib yigʻladi. Sochlarini silardi buvisi. “Tavba qil bolam, tavba qil...”
“Qachongacha buvijon, nega meni imtihonim tugamayabdi?”
“Ummu Gulsumim... goʻzal qizim.” deb sochlarini siladi yana.
Ummu Gulsum tunlarni ibodat bilan oʻtkazar, isyon qilmaslik uchun ichini faqat Allohga toʻkib solardi. Ammo 4 devor orasi

unga juda tor kelayotgan edi. Masjidga borib u yerning ma’naviy havosidan nafas olishni xohlardi. Tayyorlanib uydan chiqdi va masjid tomon yura boshladi. “Allohim iltimos haligi yosh imomni ko‘rib qolmay…” deb duolar qilardi.
Yo‘lda ketayotganida birdan orqadan ovozlar eshtila boshladi: “Fisht ey Ummu Gulsum!”
Ko‘chaning bezori yigitlari edi. Ummu Gulsum eshitmaganlikka olib yo‘lida davom etti.
“Vah, vah oldinlari bitta xabarga darhol javob yozadigan Ummu Gulsum endi yuzimizga ham qaramayabdimi?!”
Ummu Gulsum qo‘rqayotgan edi. Qadamini tezlatdi. Shu payt bir qo‘l uni ushlab o‘ziga qaratdi. Yetmaganiga belidan ham ushladi. Ummu Gulsum tepa boshladi, “Yordam bering” deb baqirdi.
Yonidagi do‘sti “Yusuf domla kelyabdi” dedi. Ammo yigit “Jim bo‘lsangchi hozir hazilni vaqtimi” deb e’tibor bermadi.
“Ummu Gulsum yur biz sen bilan chetroqqa o‘tamiz” dedi qahqaha otib. Shu payt kimdir uni o‘ziga o‘girib bir musht tushirdi. Bu o‘sha…yosh imom edi.

Uni Ko‘rib qolmaslik uchun qancha duo qilgandi. Endi esa Alloh duosini qabul qilmagani uchun shukur qilardi. Yusuf juda g‘azablangan edi. Uning bu jaxli Ummu Gulsumga Hazrati Umar, Hazrati Hamzani eslatardi. Huddi kitoblardagidek...
Ummu Gulsum yuzini qo‘li bilan berkitib yig’layotgan edi. Yusuf qizning yoniga keldi. “Singlim yaxshimisan”
Ummu Gulsum boshini sekin ko‘tardi. Yusuf uni tanigan edi. Jaxli chiqishni boshladi, nuqul nimadir muammo chiqsa o‘sha yerda qarshisiga Ummu Gulsum chiqardi. Yo‘g‘on ovozda: “O‘rningdan tur!” dedi.
Ummu Gulsum sekin o‘rnidan turdi. Atrofdagi erkaklar darrov boshlarini egishdi Ummu Gulsumga qarashmayotgandi. Chunki Yusuf domlaning bu masalalarda qanchalik qattiq qo‘lligini bilishardi. Yusuf ham xijolat bo‘layotgan qizning yuziga qaramasdan gapira boshladi:
“Musulmon ayol bunday cho‘kib qolmaydi. Kuchli bo‘ladi. Sen ham kuchli bo‘l. Seni boshqa bunday ko‘z yosh to‘kib o‘tirganingni ko‘rmay! Tushunarlimi?”
“Tushunarli” dedi pas ovozda Ummu Gulsum.
Masjid muallimasi qizning oldiga kelib uni yupatish uchub masjidga olib bordi. Ularni ko‘rgan qizlar ham masjidda toplanishdi. Hamma bir-biriga o‘tmishdagi rasmlari haligacha ijtimoiy tarmoqlarda aylanib yurganini, o‘qish joylarida

haligacha qoʻli bilan koʻrsatib gʻiybat qilishlarini gapirib berardi.
Virtual olam bir qizning hayotini ostin ustun qilib yuborishi mumkinligiga amin boʻlgandi Ummu Gulsum. Masjid muallimasi bir nimalar aytib berar, ammo Ummu Gulsum uni eshitmasdi. Uning nigohlari va hayoli masjidning bir burchagida namoz oʻqiyotgan qora niqobli ayolda edi. Yuragi yanayam tez urib ketdi. “Masha Alloh” dedi ichida. Soʻng ruhsat soʻrab uyiga ketdi. Bir hafta oʻtib maqsadiga erishdi. Ummu Gulsum ham endi niqobda edi. Hatto koʻzlari ham deyarli koʻrinmas edi. Odamlarning gap soʻzlaridan qutilgan edi. Davomli ibodat qilar, tavba qilib tinmay yigʻlar edi. Oradan oylar oʻtti. Masjiddagi hayriya kuni kelgandi. Ammo, bu safar Ummu Gulsum yordamlashish niyati yoʻq edi, chunki Yusufning soʻzlarini unutmagan edi. Shunchaki borib oʻtirdi. Masjidda hizmat qilishga oʻzini loyiq koʻrmas edi.
Bir dugonasi uni chaqirib baʼzi narsalarga yordam berib yuborishini iltimos qildi. Ummu Gulsum ming xijolatda rozi boʻldi. Qachonki biron erkak kelib ulardan nimadir istasa Ummu Gulsum boshqa joyga oʻtib olardi. Erkaklarga xizmat koʻrsatmas edi. Birozdan soʻng koʻrgan manzarasiga ishonolmadi. Yusuf…u tomonga kelayotgan edi.

Ummu Gulsumning yonidagi ayol Yusufga qarab gapirdi:
“Oʻgʻlim, nimadur yeb oldingmi? Qorning ochgandir.”
Yusuf ayolning oldiga kelib qoʻllaridan oʻpdi.
“Yedim onajon, xavotir olmang” dedi.
“Demak, Yusufni onasi ekanda.”
Ummu Gulsum hatto qayrilib qaramas, oʻz ishlari bilan mashgʻul edi.
Onasi qoʻyarda qoʻymay bir tovoqda ovqat solib bermoqchi boʻldi. Hamma band boʻlgani tufayli Ummu Gulsumdan yordam soʻradi. Lekin, u erkak borligi uchun onasi va Yusuf turgan joyga hatto yaqin ham kelmayotgan edi. Erkaklarga xizmat koʻrsatgisi kelmas, ammo bu haqda hech kimga aytolmasdi. Iffati bilan riyo qilolmasdi. Shunchaki sukut saqladi.
Yusuf juda xayron qolgan edi. Juftiga juda sodiq boʻlgan bir ayol boʻlsa kerak deb qoʻydi ichida va juda gʻururlandi. “Mayli onajon kerakmas” deb u yerdan uzoqlashdi.
Qanchalik xursand boʻlgan edi. “Oxir zamonda shunday iffatli ayollar ham bor ekan, qaniydi qolgan musulmon ayollar ham shunday boʻlsa…Niqob ham ularning nafslariga ogʻir keladi. Dinimizga mos kiyinib, erkaklardan uzoq boʻlsalar yetarli edi”

deb oʻylardi.
Kechgacha Yusufning qalbida ajoyib his bor edi, tafakkur ichida edi. Uyiga borgach onasi bilan suhbat qurishdi.
“Yusufim, bugungacha uylanish masalasini koʻtarmadim senga. Kimni koʼrsatsam doim rad qilding. Ammo, men ham qariyabman, baxtingni koʻrsam deyman…Faqat jaxling chiqmasin”
“Onajonim” dedi Yusuf. Qoʻllaridan oʻpti.
“Nega jaxlim chiqsin. Men istagandek qiz uchradi-yu, men rad qildimmi?”
“Qara, bugun masjidda bir qiz bor edi…”
“Yoʻq ona masjiddagi qizlarni istamayman. Onajon mening ayolim qanday boʻlishi kerakligini bilasizmi? Mening har bir soʻzimga itoat qiladigan, hayosidan hatto koʼzlarimga ham tik qarolmaydigan, mening oldimda boshqa erkaklarning hattoki ismini ham tilga olmaydigan boʻlishi kerak. Aktyor, sportchi… men tushunmayman buni. Hayo qilishi kerak bulardan. Men oʻzimni xohishimga zid boʻlgan ayol izlasam darhol topaman. Lekin, oilamga va bu ummatga goʻzal xizmat qiladigan kelin, farzandlarimni chiroyli tarbiyalaydigan ona, juftini mamnun qilish uchun qiladigan harakatlari bilan yoʻli jannat tomon boradigan ayol qidiryabman onajon. Bugun bir ayolni koʻrdik eslaysizmi? Masha Alloh, ishonchim komil juftiga boʻlgan hurmatidan shunday qildi. Oʼz avratini berkitib, taqvo uchun niqob kiyganidan ham koʻra, erkaklar tomonga oʻtmasdan hech kimga xizmat koʻrsatmagani meni qoyil qoldirdi. Turmush oʻrtogʻidan boshqasiga xizmat qilmasligi koʻrinib turibdi.
”Men ham shuni aytabmanda bolam.“ deb kulib qoʻydi onasi.
“Surishtiridim oʻsha qizni. Turmush qurmagan ekan, yoshi sendan 3-4 yosh kichik ekan. Menga maʼqul keldi.”
Yusuf koʻzini olib qochdi. “Kim ekan, nasl-nasabi qanday ekan?”
Oilasi dindor ekan. Balki tanirsan. Doim juma namoziga kelarkan. Ahmad amakining nevarasi”
Yusuf oʻylashni boshladi. “Ismi nima ekan bilasanmi? Ummu Gulsum! Oldinlari masjidda ishlagan ekan, ammo anchadan beri kelmayotgan ekan”
Onasi Ummu Gulsum haqida tinmay gapirar, lekin Yusuf uchun uning ismini eshtishi bilanoq mavzu yopilgan edi.
“Yoʻq ona boʻlmaydi!”
“Nega oʻgʻlim? Juda chiroyli qiz ekan, hamma maqtadi”
“Boʻlmaydi, iltimos sababini soʻramang.”

Yusuf xonasiga kirdi. Ummu Gulsum bilan bo‘lib o‘tgan voqealarni birma-bir esladi. Yusuf jufti bilan bunday tanishishni xohlamasdi. Kitoblarda o‘qigandek, hadislarda aytilgandek sevgini xohlardi. Muhammad alayhissalom, Ali roziyallohu anhularning turmushidek oila istardi. Ummu Gulsum mavzusini tamoman yopib, namoz o‘qidi. Namozdan so‘ng xayirli juft uchun uzundan-uzun duolar qildi. Yotog‘iga borib uyquga ketdi.

Ustida oppoq ko‘ylak, boshida esa salla bor edi. Gullar to‘la bog‘ning ichida edi. Hamma joyda atirgullar ifori, qushlarning sayrashi...Yusuf yurdi, yurdi, so‘ng bir joyga o‘tirib atrofni tamosh qila boshladi. Shunchalar go‘zal edi-ki, ko‘zlariga ishonmasdi. Birozdan so‘ng Yusufning oldiga oppoq ko‘ylak, oppoq ro‘mol va oppoq niqobda bir ayol kelib o‘tirdi. Yonida guvoh sifatida ikki ayol ham bor edi. Ammo, ular ko‘rinmas faqatgina nur taralardi. Birdan bir ovoz eshitdi. “Kimsan?” dedi Yusuf.
Gullarning orasidan ikki kabutar qanot qoqib uchib, Yusufning yoniga kelgach birdaniga g‘oyib bo‘ldi, atrof nurlanib ketdi . Ular xush habar olib kelgan farishtalar edi.
“Ey, Yusuf! Payg’ambarimiz nikohingni o‘qimoqdalar, qabul qilasanmi?”
Yusuf yig‘lab yubordi. “Nima? Kim bilan? Men bunday baxtga loyiq emasman!”
Takror so‘raldi.
“Ey, Yusuf! Payg‘ambarimiz nikohingni o‘qimoqdalar, qabul qilasanmi?”
Yusufning ko‘zidan tinmay yosh oqardi. Yonida o‘tirgan ayolga qaradi. Bu safar kuchliroq va balandroq ovozda so‘lardi. “Ey, Yusuf qabul qilasanmi?!”
“Ha, qabul qilaman Rosulim!” dedi Yusuf. Qanday baxt edi bu? So‘ng shohid sifatida o‘tirgan ikki ayolni so‘radi. “Bular kim?”
“Muhammad Mustafo salollohu alayhi vasallamning qizi Hazrati Fotima roziyallohu anh va jufti haloli Hazrati Hadicha roziyallohu anholar sizlarning nikoh guvohlaringizdir.” dedi farishtalar.
Yusuf xo’ngrab yig‘lab yubordi. “Ya Alloh... bu qanday xush habar...”
Shu payt bir qo‘l qo‘lida ro‘molcha bilan Yusufning ko‘z yoshlarini artdi. Yusuf jufti tomon o‘girilib, niqobini yechdi. Ne ko‘z bilan qarasin-ki, qarshisida Ummu Gulsum turardi!

Demak, Ummu Gulsum Yusuf uchun xush habar edi. Satrlangani sari yanayam goʻzallashib ketgandi. Yusuf Ummu Gulsumning peshonasidan oʻpti.
“Ey, Yusuf! Jannat muborak boʻlsin” dedi farishtalar.
Yusuf birdan uygʻonib ketdi. “Hu Alloh, Ya Alloh” deb baqirardi. Tili faqat Alloh, Alloh deyotgan edi. Yuragi huddi otilib chiqadigandek urar, qalbi ishq bilan yonayotgan edi. Onasi qoʻrqib ketganidan, Yusufning xonasiga yugurib keldi. Oʻgʻlini bu ahvolda koʻrib yanayam qoʻrqib ketdi.

Yusuf oʻzida emasdi. “Ya Alloh, Ya Alloh” deb oʻzini yerga urardi. Bir necha soatdan keyingina oʻziga keldi. Tinmay koʻz yosh toʻkardi. Unga qoʻshilib onasi ham yigʻlayotgan edi.
“Onajon, darhol sovchilikka boramiz onajon!”
“Kimnikiga oʻgʻlim?”
“Onajon ertagayoq boramiz. U mening jannatim ona tushunyabsizmi?”
Onasi juda xayron qolgandi. Tushida bir nimalar koʻrganini bilardi. Darhol tayyorgarlik koʻrdi. Ummu Gulsumning oilasiga xabar berildi.
Tunni qanday oʻtganini bilmadi Yusuf. Tunning yarmini ibodat, qolgan yarmini esa tushi va Ummu Gulsum haqida oʻylash bilan oʻtkazdi.
Yusuf vaqtni choʻzishni xohlamasdi. Hatto unashtiruvni ham tezroq qilib nikohga ulab yuborishni xohlardi. Bu taklif ikki oilaga ham ma’qul keldi. Bir haftadan keyin toʻy qilishga qaror qilishdi.
Toʻyga ikki kun qolganida Yusuf, Ummu Gulsum bilan birinchi martta yolgʻiz qolib, gaplashib olishni xohladi. Bir xona tayyorladilar. Yusuf nimalar deyishini oʻylab qoʻygandi. Lekin eshik ochilishi bilan hammasi esidan chiqib ketdi. Ummu Gulsum oppoq niqobda boshi egilgan holda kirib keldi. Yusuf nimalardir demoqchi boʻldi, ammo tili aylanmasdi. Gapni Ummu Gulsum boshladi:
“Yusuf…”
Ismini aytishini oʻzi Yusufning yurak urishini tezlashtirib yuborgandi.
“Siz mendan ham yaxshirogʻiga loyiqsiz…”
Soʻzlarini tugatmasdan Yusuf gapira boshladi.
“Yoʻq Ummu Gulsum, aslo unday dema!”
“Yusuf… men oʻtmishda juda koʻp xatolar qildim. Nomahramlar bilan biron munosabatim bo’lmadi, qo’l ushlashib yurmadim, ammo internet sahifalarida…”

“Yo‘q, bo‘ldi jim. Bularni eshtishni xohlamayman. O‘tmish, o‘tmishda qoldi. Meni oldimda bu mavzu ochilmasin!” dedi Yusuf.
Ummu Gulsum ko‘z yoshlarini artdi.
“Sen meni halolim bo‘lasan Ummu Gulsum. O‘tmishing, gunohlaring… bularni menga qizig‘i yo‘q. Allohning kechirganini, unuttirganini men eslatamanmi?
Tavba qilgan insonni xor ko‘rmayman. Muhimi pushaymon bo‘lib gunohlarga tavba qilishlik. Aslida men senga loyiq emasman, o‘tmishda senga qanday gaplar gapirib dilingni og‘ritgandim. Mendan rozi bo‘lasanmi, kechira olasanmi?” dedi Yusuf.
Ummu Gulsum: “O’tmishni eslamasdan, ko‘zlarimga qaray olasizmi?”
“Ummu Gulsum, sen mening kelajagimsan. Azaldan taqdirimga yozilgan halolim, Qolu Balodan beri to bugungacha tutgan ishq ro‘zamsan. Ko‘zlaringga qaraganimda o‘tmishni emas, faqat muhabbatni ko‘raman. Nega seni ayblay? Alloh bizning yordamchimiz bo‘ladi.”

To‘y kuni… Juda oddiy, kichkina to‘y qilishdi. Ayollar va erkaklar alohida, isrofsiz, bid’atlarsiz. Huddi Payg’ambarimiz buyurganlaridek. Ummu Gulsum oppoq ko‘ylakda, oppoq niqobda edi. Ko‘zlari ham ko‘rinmas edi. Barchaga o‘rnak bo‘ladigan, musulmonlar qanday to‘y qilishi kerakligini ko‘rsatib beradigan to‘y bo‘lgan edi.
To‘y tugagach uylariga kettilar. Yusuf, Ummu Gulsumga Hazrati Hifa va Hazrati Suhaybning hikoyasini so‘zlab berdi. Ummu Gulsum indamasdan boshini egib eshtib otirdi. Juda go‘zal hikoya edi. Yusuf istaganidek o‘sha kechani ibodat bilan namoz o‘qib o‘tkazishdi. So‘ng Yusuf Ummu Gulsumning niqobini yechdi. Peshonasidan o‘pib:
“Jannatimsan mening Ummu Gulsum!” dedi.
Oradan oylar o‘tti. Yusuf sevganiga juda chiroyli muomala qilar, uni hech hafa qilmasdi. Ummu Gulsumda qandaydir xolsizlik bor edi. Bu ularning orasiga masofa qo‘ygandi. Yusuf ham buni sezar va o‘ziga-o‘zi: “Nahotki men o’ylagan narsa bo’lsa…Ummu Gulsum ona bo’ladimi!?” derdi.
Lekin so’ramasdi. Bu xabarni halolining o‘zi aytishini xohlardi. Yusuf Ummu Gulsumga uy ishlarini ham qildirmay qo’ydi. Kutdi, kutdi… lekin Ummu Gulsum hech narsa demasdi. Bir kun birga namoz o‘qib bo‘lishganidan keyin Ummu Gulsum

turib, kitoblar orasidan bir nima olib keldi. Yusufning qo’llarini o‘pib, unga tutqazdi. Bu o‘sha, bir paytlar Qur’onining oyatlari orasiga qo’yib qo’ygan ro‘molchasi edi. Yusufning qo’lini yuragiga qo‘ydi.

“Yusufim... bizni hech narsa ajratolmaydi. Yolg’iz o’lim ajratishi mumkin...”
Yusuf yig‘lab yubordi. Ummu Gulsumni bunchalik ta’sirlantirgan narsa nima edi? Ayniqsa, oxirgi jumlasini eshtgach Yusufning miyyasida chaqmoq chaqqandek bo’ldi.
“Sevgimiz oxiratga qoldi Yusufim...” dedi Ummu Gulsum.

Yusuf sezgandi, yorini uni tashlab ketishini eshtib yuragi yona boshladi. Shu payt Ummu Gulsumning ko’zlari asta-sekin yumilib boshi Yusufning yelkasiga tushdi. Yusuf uni uyg‘otishga harakat qilardi. Lekin Ummu Gulsum uyg‘onmasdi. Tez yordam chaqirdi.
“Uyg’on jannatim, iltimos ko‘zlaringni och!” derdi Yusuf. Hayoliga kelgan duolarni o‘qirdi. Ummu Gulsum ko‘zlarini ochdi, Yusufga ro‘molchasini berib: “Buni oling, doim Qur’oningizning ichida tursin” dedi pas ovozda. Yusufning ko‘z yoshlari sevgilisining yuziga tomchilardi. Ummu Gulsum chuqur nafas oldi va kulimsiradi. “Siz ham shirin hidni sezyabsizmi? Huddi gullar to‘la bog’ning ichida o‘tirgandekmiz.”
Yusuf Ummu Gulsumni boshini ko‘tarib quchoqladi: “Iltimos, meni tashlab ketma” derdi. Ummu Gulsum sekin shahodat barmog’ini ko‘tardi va Yusufning qulog‘iga
“La Ilaha Ilalloh” dedi.
“Qara menga sevgilim. Bizning nikohimiz Arshi Aloda o‘qildi. Biz jannat eshiklarini birgalikda ochamiz. Kuchim, nafasim yetganicha seni duolarimda doim eslayman...” derdi Yusuf, Ummu Gulsumning boshini silagan holda.
Ummu Gulsum ko‘zlarini yumdi. Yusuf esa pichirlagan holda dedi:
“Sen ham shahitsan gulim, sen ham shahitsan...”
uning yuzlarini silab oxirat yurtiga kuzatdi.

Ummu Gulsumni yuvadigan ayol kamdan-kam bunday xolatlarga duch kelardi.
Ummu Gulsumning yuzida tabassum bor edi.
Uni huddi kelinchaklardek tayyorladi. Chunki, farishtalar tomonidan kutib olinishini bilardi.
Yusuf ko‘zlarida yosh, o’zini qo’lga olishga harakat qilardi,

yuragi yongan holda uni tuproqqa qo‘ydi. Hali unga to‘yib ulgurmasdan tuproq uni olib qo‘ygandi. O‘sha kecha Yusuf bir tush ko‘rdi…Ummu Gulsum unga tabassum qilayotgandi. “Yusufim! Meni Fotima onamiz kutib oldilar. Men seni jannatning eshigi tagida kutaman” deyotgandi.
Jannatning eshigi tagida